

XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATIDA KUYLANGAN G'OYALAR VA ULARGA TURK ZIYOLILARINING TA'SIRI

ADU, filologiya fanlari doktori, professor

Muqaddas Tojiboyeva

NamMTI tayanch doktoranti

No'monova Ro'zaxon No'monjon qizi

E-mail: nomonovaroazon2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlari o'zbek she'riyatidagi o'ziga xos xususiyatlar ko'rib chiqilgan. O'zbek madaniyatini yorqinroq ifodalash uchun bu davr shoirlarining erkinlik va suverenitetga intilishlarini o'zida aks ettirgan umumiy mavzular, motivlar va adabiy vositalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, turk matbuoti ta'siri, XX asr boshlaridagi she'riyat qiyofasi, erk va ma'rifat g'oyalarining ifodalanishi

O'zbek xalqining Sharq xalqlari, xususan, turk xalqi bilan adabiy aloqalari uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu, tabiiyki, ikki xalqning tili, dini, e'tiqodi, adabiyoti va tarixi yaqinligi bilan izohlanadi. O'z rivoji davomida adabiy aloqlar turli tarixiy davr sharoitlari ta'sirida turlicha yo'nalish va xususiyat kasb etib borgan. Bu aloqalar, ayniqsa, 1905-1925 yillarda ular hayotida ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida yanada rivojlana boshlagan. Sovet davri o'zbek adabiyotshunosligida mazkur aloqalar o'zbek adabiyotiga turk adabiyotining ta'siri kommunistik mafkura tazyiqi ostida, panturkizmning yorqin ko'rinishi sifatida baholanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin XX asr o'zbek adabiyoti tarixini qayta o'rganish asnosida 1910-1920 yillardagi yangi o'zbek adabiyoti rivojida zamonaviy ilg'or turk adabiyoti va matbuotining ham muayyan ijobiy ta'siri sezilarli bo'lganligi xolis ko'rsatila boshlandi. O'zbek matbuotida turk shoirlarining she'rlaridan bir qancha yangi tarjimalar e'lon qilindi. Lekin shunga qaramasdan, mazkur davrdagi o'zbek-turk adabiy aloqalari tarixi maxsus o'rganilgan emas. Vaholanki, 1-Prezidentimiz Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q... O'zlikni anglash tarixdan boshlanadi. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi". Yuqorida aytib o'tilganidek, adabiy aloqalar ayniqsa, XX asr boshlarida yuqori darajaga ko'tarildi. Sababi esa ma'lum: ikki davlatda ham bir xil siyosiy vaziyat hukmron edi. O'lkamizda Jadidlar deb atalmish ma'rifatparvarlar matbuot, adabiyot orqali xalqni savodli qilmoqqa astoydil kurashayotgan edilar. Xo'sh, ularning bu buyuk harakatni boshlashlariga kim yo nima turki bo'ldi? Albatta, buning javobi Turkiyada ayni paytda sodir bo'layotgan ziyolilar harakati edi. Ularning

chiqarayotgan gazeta va jurnallaridan boxabar bo'lib turgan jadidlarda ham hurriyat va erk uchun qalam bilan, ilm bilan kurashish fikri tug'iladi.

Taniqli adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov XX asr o'zbek adabiyotini tadqiq etar ekan, uni uchta katta adabiy davrlarga bo'ladi. Bular:

- 1) milliy uyg'onish davri adabiyoti,
- 2) ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti
- 3) mustaqillik davri adabiyoti¹

Xo'sh, bu davrda adabiy-siyosiy muhit qanday edi? Avvalo, bu savolga javob qidirar ekanmiz, Turkistonning XIX asr oxiri XX boshlarida adabiy jarayonlarining sustlashayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunga siyosiy holat sabab bo'ladi, albatta. Chunki bu davrda Turkiston bir tarafdin mustamlakachi hokimiyati, ikkinchi tarafdin mahalliy amaldorlar nazorati ostida edi. Qashshoqlik, savodsizlik avj olgan, xalq tashqi dunyodan uzilgan, qo'rquv va iskanjada yashayotgan davr edi. Bu davrni yanada yaqqol tasavvur hosil qilish uchun M.Behbudiyniing asarlarini, A. Fitratning "Abulfayzxon" dramasini, Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalarini yoki "Kishan", "Xalq", "Go'zal" kabi she'rlarini shuningdek, A.Avloniyniing barcha janrdagi asarlarini va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarini o'qishning o'zi kifoya etadi. Mustamlakachi hukumat xalqni savodsiz holatda tutishga harakat qilgan bir paytda jaded ziyolilari bunga qarshi tish tirnog'I bilan qarshi chiqqanlar. Masalan, buni yuqorida nomi keltirilgan asarda Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta'sir o'tkazgan kishilardan biri N.I.Ilminskiyniing maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktubida: "Olimlardan va o'ta bilimli o'qituvchilardan ehtiyot bo'linglar. O'ta odobli va mukkasii bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar²" kabi "dono" maslahatidan ham, - anglashimiz mumkin. Shunday istibdod davrida xalqqa taraqqiyot haqidagi o'ylar chetdan kirib kelgan gazetalar orqali uyg'ona boshlandi. Ayniqsa, qardosh xalq hisoblangan turklardan shunday tahlikali vaziyatda yetishib chiqqa olgan fidoyi ma'rifatparvarlar T.Fikrat, N.Kamol va boshqalar bilan ziyolilarimiz aloqalari juda do'stona bo'lgan. Buni A.Cho'lponning tarjimai holida keltirilgan ma'lumotlardan bilishimiz mumkin. Ya'ni shoir turklardan Tavfiq Fikrat she'rlarini o'zbekchaga tarjima qiladi, bundan tashqari muallif haqida alohida maqola ham yozadi. Shuningdek, Avloniy, Hamza, Tavallo kabilarning aksariyat she'rlarini ko'rib chiqsak turk she'riyatida ilgari surilgan ayni g'oyalar tarannum etilganliginiing guvohi bo'lamiz.

Jadidlar poeziyasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, avvalo ularning hammasidan bir mushtaraklik mavjudligini ko'ramiz. Ya'ni erkni kuylamoq va natijada ozodlikka erishmoqlik. Balki, ular asar yozishdan avval bir- birlari bilan baxsga kirishgan yohud

¹ Naim Karimov "XX asr manzaralari" – T."O'zbekiston". NMIU.2008.

² O'sha kitob. 55-bet.

yozganlarini birgalikda tahlildan o'tkazgandirlar. Albatta, ayrim paytlarda ular bir-birlaridan adabiy maslahat ham olib turganlar. Buni quyidagi xat matnidan ham tushunishimiz mumkin. Xat matni:

“Hamza afandi! She'ringiz olindi, darj etilur. She'ringizda: “Qo'rquv yo'qdi majoz kavmakondin Ishonchlar ko'b erdi (o'g'on)din... (Matndagi qavs belgilari muallif tarafidan qo'yilgan – O.J.) Yana biroz pastda: “Movri g'ayrdin burar piston...” deb yozilgan narsalar bor. Shulardan yuqoridagi (o'g'on) degan so'zni keyingi bir satrni hammasini bizga ochiq qilub yozub yuboring. Bo'lmasa birar narsa chiqarub bo'lmaydur... Yana: “Tavashshuh! (to'ri...)ga...” debsiz, “to'r”dan maqsad nima? Ta'rix uchun “ganji o'zbey Sadoi Turkiston” debsiz. Munda “o'zbey” bir turli ajoyibroq tuyuladi. She'r yaxshi, gazeta sahifasini ziynatlar, yana yozsangiz; ammo bu so'zlaringizga javob yozingiz. Adresi idora: “Turkestanskiy go'lus”. Ehtirom ila idora nomina Abdulhamid. 12/XII. 916 r.”

Bu A.Cho'lponning Hamzaga yozgan maktubi matni. Bundan tashqarai yana bir maktub Hamza arxivida saqlanib qolgan. Matndan ko'ramizki, jadidlar bir-birlarining fikrlariga katta hurmat bilan qaraganlar. Bu ijodiy hamkorlik va o'zaro yaxshi asarlar yaratishga undash keyinchalik ham davom etgan, deyish mumkin. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sirojiddin Ahmadning fikrlariga ko'ra: “Cho'lpon Hamzaning ijodini, iste'dodini yuksak qadrlagan, shu bilan birga uni badiiy barkamol, jahon adabiyoti talablari darajasida asarlar yozishga undagan”.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jadidlarning turk shoirlari bilan aloqasi juda yaxshi bo'lgan. Buni Usmonli mamlakatida XX asr boshlari nashrdan chiqqan gazeta va jurnal maqolalari ham tasdiqlaydi. Chunki ularni aksariyat sonlarida aynan jadidlar, Buhoro jadidchilik harakatlari haqida ko'plab maqolalar chiqarilgan. Bu nashrlar esa tabiiyki Turkiston ziyolilari va yoshlari qo'liga yetib kelgandan so'ng o'z ta'sir kuchini yanada oshirgan. Nashrlar Turkistonga kirib borishi pirovardida jadidlar nafaqat, islom olamidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lishdi, qolaversa, ular (jadidlar) ko'pgina jihatlarni o'z faoliyatlari davomida qo'llay boshladilar. Bu haqida Sadridin Ayniyning xotiralarida bir qancha ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi asrning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Eron va Turkiyada sodir bo'lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabarlar ham aynan shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi. Turk matbuoti faqatgina Turkiston matbuotiga ta'sir qilib, uni “uyg'otib”gina qolmadi. Pirovardida yangi usuldagi maktablarning aynan jadidlar tomonidan tashkil etilishi millatni ma'rifatli qilish yo'lidagi yana bir keskin burilish edi. Chor hukumati “ruslashtirish” siyosati natijasida Turkistonga ko'chirib kelingan “mujik”larning boshlarini silab, mahalliy xalqni ezish va feodal qoloqlik sharoitda

ushlab turish uchun misli ko'rilmagan tubanliklarni amalga oshirdi. Natijada, mahalliy xalqning har jabhadagi ahvoli chidab bo'lmas darajada mushkullashdi. Turkiston xalqlarining shu davrdagi hayoti, dunyoqarashi, saviyasi, mentalitetga xos salbiy xislatlar, tobora ildiz otib borayotgan illatlar Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalari, Avloniyning she'rlarida va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarida qattiq qoralandi. XX asr boshlaridagi turmushning o'ta ayanchli holatga kelib qolganligini o'z ko'zlari bilan ko'rgan ziyolilar, yuqorida aytilgan turk gazeta va jurnallarini o'qiganlaridan keyin, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydilar. Ismoil Gaspinskiy 1893-yili Samarqand va Buxoroga tashrifi davomida M.Behbudiy va A.Shakuriy singari millat peshqadamlari bilan tanishishi asnosida Buxoroda tashkil etilgan "usuli jadid" maktabi, keyinchalik Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Andijon singari shaharlarda ham jadid maktablari tashkil etilishiga zamin yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, millat oydinlari xalqni ma'rifatli qilish, ularga yo'l ko'rsatishning eng qulay usuli sifatida matbuotdan foydalandilar. Gazeta va jurnallarning nashr etilishi butun turkiy adabiyotga yangi janrlar: maqola, roman, hikoya, tanqid kabi janrlarning kirib kelishiga yo'l ochdi. Islohotchilar xalqni savodli qilish, yangi yaratilgan adabiyotni ommaga tanishtirish maqsadida ularga yetib boradigan eng qisqa yo'l "gazeta"dan foydalanganlar. Albatta, bu harakatlarning barchasi yillar o'tib o'z samarasini bermay qolmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: "О'ЗBEKISTON"НМИУ, 2008 й;
2. Ibragimov, S.E., (2021). JADIDCHILIK HARAKATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,
3. Z.Abdurashidov. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar.// "O'zbekiston: til va madaniyat"// 2022-y. №-3.
4. Mukaddaskhon Tojiboyeva Abdurakhimovna; Shahnoza Azimjonova. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) DOI: 10.5958/2249-7137.2020.00946.5 THE CONCEPT OF THE LITERARY ENVIRONMENT AND ITS MAIN SIGNS
5. Mukadas Tojibaeva; Utkirbek Madumarov. ISSN: 2278-4853 Special Issue, March, 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882 TRANSAsian Research Journals <http://www.tarj.in> 18 Special Issue Published by: TRANSAsian Research Journals AJMR: Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refered & Reviewed International Journal) ON POEMS OF ADO INCLUDED IN «MAJMUAI SHOIRON»
6. Numonova Ruzaxon Numonjon qizi" CHARACTERISTICS OF THE USE OF METAPHORICAL AND PHRASEOLOGICAL IMAGES IN THE WORK OF

ART” World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at:
<https://www.scholarexpress.net> Vol. 21, April, 2023 ISSN: 2749-361X

7. Nomaniva Ruzakhon Nomonjon kizi, Mukaddas Abdurakhimovna Tadjibayeva
“THE EXPRESSION OF THE IDEA OF ENLIGHTENMENT IN THE POETRY
OF HAMZA HAKIMZODA”//ACADEMICIA:An International multidisciplinary
Research Journal.Vol.10,Issue 11, November 2020. 1272-1276
8. Rozakhon Nomonova. LINGUOCULTURAL FEATURES OF SOME PHRASES
USED IN "SATAN" Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022: 5.908
journal homepage: <https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>
9. UO’K 808.5BADIY MATN TAHLILINING ASOSIY YO’NALISHLARI
R.No‘monova, A.Shodiyeva, Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси:
илмий журнал.-№11/4 (95), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 216 б. –
Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56> ISSN 2091-
[573 X/ 60-64](http://mamun.uz/uz/page/56)